

MAXSUS TA'LIMGA EHTIYOJI BO'LGAN O'QUVCHILARNI O'QITISH JARAYONINI INDIVIDUALLASHTIRILGAN KOMPETENTSIYAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH OMILLARI

Turg'unboyev Sirojiddin Faxriddinovich

Yangi asr universiteti

sirojiddindok@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada alohida ta'lism ehtiyoji bo'lgan bolalarning potensialini ro'yyobga chiqarish va ularni ta'lism, madaniyat va sportda shuningdek, kelajakdagi kasbiy, mehnat faoliyatida o'z imkoniyatlarini amalga oshirishini ta'minlash kabi masalalar yoritilgan. maxsus ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilarning ta'lism jarayonidagi mavjud bo'lgan ko'plab kamchiliklarni bartaraf etish mazkur toifadagi o'quvchilarning minimal qobiliyat va ko'nikmalarni egalashi zarurati bilan bog'liqligi asoslangan.

Shuningdek, statistik ma'lumotlar, ilmiy adabiyotlar tahlili va ilmiy xulosalar bayoni hamda muhim pedagogik tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Maxsus ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilar, ko'nikma va malakalar, didaktik vositalar, assistiv texnologiyalar, multimedia ilovalari.

FACTORS FOR IMPROVING THE PROCESS OF TEACHING STUDENTS WITH SPECIAL EDUCATIONAL NEEDS BASED ON INDIVIDUALIZED COMPETENCE APPROACHES

ABSTRACT

This article covers issues such as realizing the potential of children with special educational needs and ensuring that they realize their potential in education, culture and sports, as well as in future professional and work activities. Elimination of many existing deficiencies in the educational process of students with special education needs is based on the need for students of this category to acquire minimum abilities and skills.

Statistical data, analysis of scientific literature, presentation of scientific findings and important pedagogical recommendations are also presented.

Keywords: Pupils with special educational needs, skills and competencies, didactic tools, assistive technologies, multimedia applications.

KIRISH

Insonlardagi turli xil muammolarni reabilitatsiya qilish potensialining bilimga asoslangan tarkibiy qismidagi o‘zgarishlar (dunyo qarashining kengayishi, jamiyatda o‘zining adekvat xis qilishi, ijtimoiy ma’naviy, ruhiy, jismoniy rivojlanishi), jamiyatdagi xatti-harakatlar normalari va qoidalariga, mavjud kasblarga nisbatan his-tuyg‘ularini shakllantirishda namoyon bo‘ladi.

Alovida yordamga muhtoj bo‘lgan bolalarning potensialini ro‘yyobga chiqarish va ularni ta’lim, madaniyat va sportda hamda kelajakdagi kasbiy, mehnat faoliyatida o‘z imkoniyatlarini amalga oshirishini ta’minalash kabi masalalar alovida ahamiyat kasb etadi.

Imkoniyati cheklangan shaxslar jamiyatimizning ajralmas qismi bo‘lib, ijtimoiy hayotimizning turli jabhalarida faol ishtirok etmoqdalar. Mazkur shaxslarning mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlardan xabardor bo‘lishi, hayotga moslashishi va reabilitatsiyasi samarali kechishi uchun ulardan turli sohalarga tegishli bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi talab etiladi.

Nogironligi bo‘lgan bolalarning komillikka intilishida, ulardagi birlamichi nuqson natijasida kelib chiqqan ikkilamchi nuqsonlarni bartaraf etishning eng optimal yechimlarini amaliyotga joriy etish, mazkur toifadagi bolalarning ruhiy, jismoniy, aqliy, hissiy rivojlanishidagi o‘ziga xosliklarni inobatga olgan holda zamonaviy kasblarga tayyorlash, asrimizning eng ilg‘or kashfiyotlarini ta’lim tizimiga tadbiq etish kabi zamonaviy yondashuvlar o‘ta dolzarbdir. Mazkur yondashuvlarning samaradorligi bevosita alovida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim va tarbiya berish jarayonining ilmiy-metodik ta’mintonini doimiy takomillashtirib borish bilan belgilanadi.

Maxsus ta’limga ehtiyoji bo‘lgan o‘quvchilarni o‘qitish jarayonini amalga oshirish, har bir o‘quvchining qobiliyatlariga va ta’lim ehtiyojlariga mos keladigan o‘quv materiallardan foydalanishni ta’minalash masalasi ushbu toifadagi o‘quvsilarni o‘qitish murakkab vazifa ekanligidan dalolat beradi. Bunda, har bir o‘quvchi uchun standart o‘quv rejadan tanlangan maxsus maqsadli va individuallashtirilgan kompetentsiyaviy yondashuvlarga asoslangan korreksion o‘quv dasturlarni ishlab chiqishni talab qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA, MUHOKAMA

Maxsus ta’limga ehtiyoji bo‘lgan o‘quvchilar uchun o‘quv rejalar, korreksion rivojlaniruvchi va fan dasturlariga tegishli o‘zgartirish va qo‘sishchalar kiritishda faqat ta’lim va tarbiya berish maqsadlari va mazmuniga e’tibor qaratilibgina qolmay balki, o‘quvchilarning ta’lim olishi uchun zarur bo‘lgan o‘quv resurslari, o‘quv jarayonini yaxshilaydigan qulay atrof-muhit va moddiy sharoitlar yaratilishi kerak [1].

Bunday o‘zgarishlarga (atrof-muhitning qulayligi, o‘quv materiallari, metodologiya, baholash va h.k.) “mavjud chora-tadbirlari” sifatida qaraladi, va ular ham

ma'lum holat va vaziyatlarda o'zgartirilishi kerak bo'lgan ta'lim va tarbiya jarayonining bir qismi sifatida ko'rish mumkin. Bundan tashqari, ushbu o'zgarish ba'zan amaldagi standart o'quv reja va dasturlarda chetga chiqishni talab etishini unutmaslik zarur. Bu o'quvchi mustaqil hayot kechira olishi uchun zaruriy yordam bilan egallashi kerak bo'lgan minimal qobiliyat va ko'nikmalarini egalashi zarurati bilan bog'liqdir [2].

Bugungi kunda hech kimga sir emaski, raqamli ta'lim vositalari o'qituvchilarga maxsus ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilarni o'qitishda foydalanishlari uchun samarali vositadir. raqamli ta'lim vositalari Maxsus ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilarga maqsadli ta'lim tarbiya berishda shunisi bilan ahamiyatli-ki, o'qituvchi va o'quvchining o'zaro aloqada bo'lishning bir nechta usullarini taklif etadi va ta'lim jarayonining samaradorligiga ta'sir etuvchi barcha omillarni hisobga oladigan bir nechta vositalarni o'zida mujassam eta oladi. Shu sababli, ananaviy o'qitish uslulari jamoaviy va hamkorlik tajribasiga emas, balki individual bilimlarga asoslanishi bilan harakterlanadi [3].

Bizning fikrimizcha, maxsus ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi mavjud bo'lgan ko'plab kamchiliklarni bartaraf etish va ularni bartaraf etishning eng yaxshi usuli bu o'quvchilarni tarbiyalashda ishtirok etadigan barcha omillarni va barcha elementlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni hisobga olishdir.

NATIJALAR

Muammoga doir bir qator manbalarda [1, 2, 4] keltirilgan ma'lumotlarning ilmiy tahliliga ko'ra ikkita asosiy muhim jihatga e'tiborimizni qaratdi ya'ni:

- o'quvchining o'ziga xos xususiyatlari va o'zlashtirilishi zarur bo'lgan ko'nikma va bilimlarga qarab o'quv dasturlarini o'zgartirish bo'yicha o'qituvchilarga yo'l-yo'riq ko'rsatish, qaysi materiallardan foydalanishni tanlash, qaysi yordamchi texnologiyalarni (apparat va dasturiy ta'minot) qo'llashni tanlash va o'quv jarayonining qanday borishni hal qilish uchun vositalar bilan ta'minlash. Bunda asosiy e'tibor o'qituvchilarga qaratilgan va o'quvchi bilan o'quv jarayonini muvaffaqiyatli o'tkazish uchun tavsiyalar va ko'rsatmalar beradigan bilimga asoslangan tizimdan iborat bo'ladi.

- maxsus ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilar bilim va ko'nikmalarini rivojlantiruvchi didaktik vositalar, assistiv texnologiyalar va multimedia ilovalarini ishlab chiqish metodologiyasini boyitish. Mazkur holat AKTdan foydalanish orqali maxsus ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilarning butun o'quv jarayonini umumiy va har tomonlama takomillashtirishga erishish uchun maxsus maqsadli metodologiyani shakllantirishga majbur qiladi.

XULOSA

Yuqorida aks ettirilgan qarashlardan kelib chiqqan holda shu aytish mumkinki, maxsus ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilarni o'qitish jarayonida ta'lim texnologiyalarida keng foydalanish, o'qituvchilarning mehnat unumdarligini oshiradi,

har bir o‘quvchining o‘zlashtirish samaradorligini nazorat qilish va teskari aloqa tizimi o‘quvchilarining individual qobiliyati va xarakteriga mos ravishda ta’lim-tarbiya olish imkonini berishiga hissa qo‘sadi, o‘qitishning asosiy funksiyalarini o‘qitish vositalariga o‘tkazish orqali o‘qituvchining vaqtini tejaydi, natijada u o‘quvchilarining individual va shaxsiy rivojlanishi masalalariga ko‘proq e’tibor bera oladi [5].

Shuningdek, har qanday texnologiya uchun maqsad juda aniq belgilab qo‘yilganligi sababli, ob’ektiv nazorat usullarini qo’llash nazoratda sub’ektiv omil rolini kamaytirish imkonini beradi, o‘qitish texnologiyalari ta’lim natijalarining o‘qituvchining malaka darajasiga bog‘liqligini kamaytirish imkonini berib, barcha ta’lim muassasalarida o‘quvchilar tomonidan o‘quv fanini o‘zlashtirish darajalarini tenglashtirish imkoniyatlarini yaratadi [5].

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Alonso F., S.Frutos, J.L.Fuertes, Á.L.Martínez, and C.Montes, —ALBOR. An internet-based advisory KBS with a multi-agent architecture|. International Conference on Advances in Infrastructure for Electronic Business, Science, and Education on the Internet, 2001, pp. 1- 6
2. Cantón P., A.L.González, G.Mariscal, and C.Ruiz, — Developing pedagogical multimedia resources targeting children with special educational needs|. 10th International Conference on Computers Helping People with Special Needs (ICCHP 2006). Springer-Verlag, LNCS 4061, pp. 536-543
3. Stahl S., —A discussion of accessible curriculum materials|. Wakefield, MA: National Center on Accessing the General Curriculum. Retrieved September 2007
4. Alonso F., A.de Antonio, J.L.Fuertes, and C.Montes, —MEHIDA: An Intelligent Multimedia Tutoring System for the Hearing-Impaired|. Proceedings of the SPIE Multimedia Computing and Networking, volume: 2417, 1995, pp. 24-34
5. Turg‘unboyev S.F. Alovida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalar ruhiy, jismoniy va aqliy rivojlanishining psixologik asoslari // Yangi O‘zbekiston yoshlarida XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirish: muammo va yechimlar // mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. Toshkent. Yangi asr universiteti. 2023 yil 25-noyabr. 70-72 bet.